

ADABIYOT DARSLARIDA MUHAMMAD YUSUF IJODINI O‘RGANISHDA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR FOYDALANISH

Pazliddinov Sherzodbek Qurbonovich

Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTBga qarashli 64-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fanlar metodbirlashma rahbari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Muhammad Yusuf ijodini o‘rganish va ushbu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar. *Muhammad Yusuf, ta’lim, tarbiya, metod, texnologiya, pedagogik, jarayon, samaradorlik.*

Ta’lim jarayonlarini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ularga ta’lim berish va ta’lim oluvchini o‘z ortidan ergashtira olish uchun o‘qituvchi dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalansagina darsning saviyasi va samarasi yuqori bo‘ladi. Har bir jamiyatning kelajagining ajralmas qismi bo‘lgan ta’lim tizimining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan Respublikamizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu maqolada ham ta’limning saviyasini yuqoriga ko‘tarish va dars jarayonini isloh qilishda o‘qituvchilarga yordam berish maqsadida darslikdagi Muhammad Yusufning hayoti va ijodi bilan tanishtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni havola etamiz.

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, Respublika Rus tili va adabiyoti institutida o‘qib, uni 1978-yilda bitirdi. Shoir 1978-1980-yillarda Kitobsevarlar respublika jamiyatida, 1980-1986-yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992-yillarda G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyotida, 1992-1995-yillarda «O‘zbekiston ovozi» gazetasida, O‘zbekiston Axborot agentligida ishladi, 1995- 1996-yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o‘qidi. 1997-yildan boshlab O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o‘rinbosari lavozimida ishladi. Muhammad Yusuf O‘zbekistondagi eng yosh xalq shoiri (1998) hisoblanadi. Uning dastlabki she‘rlari «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» ro‘znomasida 1976-yilda chop etilgan edi. Bevaqt o‘lim shoirni oramizdan olib ketdi. Kitoblari va she‘rlari: «Tanish teraklar» (1985, birinchi to‘plami), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz» (1989), «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko‘nglimda bir yor» (1990), «Bevafo ko‘p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992), «Osmonimga olib ketaman», «Kumush», «Kokilingni kim kesdi», «Aldov», «Turkman

qiz», «Yur, Muhammad, ketdik bu yerdan», «Yolgʻonchi yor», «Qora quyosh» (doston) va boshqalar.

Ona-Vatanni sevish, uni ardoqlash, himoya qilish insonning birinchi darajali burchi, shu bilan birgalikda uning vatanparvarlik fazilati, qalbning eng oliy tuygʻularidan biridir. Shuning uchun ham Vatan mehri, sogʻinchi undan ikki qadam uzoqlashmasdan turib qalbgalar larza soladi. Vatan mehri, muqaddas ona tuproq sogʻinchi oʻrnini hech narsa bosa olmaydi. Muhammad Yusuf oʻz sheʼrlarida ham xalq qoʻshiqlari ohangidan muhim uslubiy vosita sifatida unumli foydalangan. Bu ham shoir asarlarining xalqona, milliy ruhini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartlari (DTS)ga koʻra, oʻquvchilarga adabiyot fani boʻyicha quyidagi kompetensiya va malaka talablari qoʻyiladi:

-badiiy tasvir vositalari haqida matnga tayanilgan holda mustaqil fikr yuritish va tahlil qila olish;

-oʻqigan asaridan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olish;

-oʻzga insonning tuygʻulari va hissiy kechinmalar xususida fikr yuritish;

-oʻrganilgan adiblar tabiatiga xos boʻlgan hislatlarni baholay bilish,

-oʻrganilgan asarlarda tasvirlangan badiiy timsollar xususiyatiga xos boʻlgan hislatlarni anglab, ularga munosabat bildirish;

-oʻrganilgan badiiy asarlar timsollarining tabiatidagi milliy xususiyatlarni anglay bilish;

-adabiyot nazariyasiga doir bilimlarni kitobxonlik amaliyotida mustaqil qoʻllay olish;

-adabiy-tarixiy davrlarga va adiblar ijodiga toʻgʻri baho bera olish kabildir;

Ammo, oʻquvchilarda bu sifatlarni shakllantirish uchun bugungi kun oʻqituvchisida ilmiy salohiyat bilan birgalikda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy AKT (axborot kommunikatsiya vositalari)ni qoʻllay olish malakalari ham boʻlishi kerak. Oʻquv jarayonlarini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir. Mashgʻulotlar turlarining anʼanaviy koʻrinishlari bilan bir qatorda noanʼanaviy shakllaridan ham keng foydalanish taʼlim oluvchilarning sezilarli darajada rivojlanishiga olib boradi. Olib boriladigan har bir dars oʻquvchilarning yanada olgʻa intilishi uchun motivatsiya boʻlib xizmat qilishi kerak. Buning uchun oʻqituvchi zimmasiga auditoriyada erkin muloqot muhitini yaratish hamda dars mashgʻulotlarini samarali tashkil etish vazifalari yuklatiladi.

Adabiyot darslarida Muhammad Yusuf ijodini oʻrganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar juda katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar oʻquvchilarning qiziqishlarini oʻstirish, ularning tushunchalarini mustahkamlash va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orasida interaktiv darslar, virtual maktab muassasalari, online maʼlumotlar va oʻquv sinalaridan foydalanish kabi variantlar mavjud. Bu usullar orqali oʻquvchilarni koʻproq qatnashishga va adabiyotning muhim tushunchalarini engillashga erishish mumkin. Bu bilan birga,

o'quvchilar motivatsiyalarini oshirib, o'rganishda qiziqish va ilg'orlikni saqlab qolishadi. Muhammad Yusuf ijodini o'rganishning yuqori effektivligini ta'minlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ahamiyatli rol o'ynaydi.

Pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta'minlashdir. O'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsa, ko'zlangan maqsad amalga oshadi. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining asosi sanaladi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma'lum va kengqo'llanadigan usullardan "Aqliy hujum", "Klaster", "VENN diagrammasi", "BBB", "FSMU" kabilar dars jarayonida o'zlarining samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda. "Qiyoslash metodi", "Davra metodi", "6x6x6" kabi metodlarning dars samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor.

Xususan, "Qiyoslash metodi"dan adabiyot fanida Muhammad Yusuf hamda Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi o'rganilgandan so'ng mavzuni mustahkamlash uchun foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilar uch guruhga bo'linib oladilar. Birinchi guruhga Muhammad Yusuf va Pirimqul Qodirovning hayot yo'li va bundagi o'zaro o'xshashliklar, ikkinchi guruhga ularning ijodiy merosi va yaratgan qahramonlari hamda ularning o'xshash zamonlari, uchinchi guruhga esa ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar xususida fikrlarni umumlashtirish, jamoa bo'lib taqdim qilish so'raladi.

“Ters test” yoki “Teskari test” metodi

Bu metod o'z nomi bilan aytilganidek, teskari test yechish. Testning javob variantlari avval ekranli doskada namoyish etiladi. Undan so'ng o'qituvchi tomonidan bu testning savoli o'qib eshittiriladi. O'quvchilar qo'llariga javob variantlardagi harflar yozilgan kartochkalar tarqatilgan bo'lib, qaysi javob varianti berilgan savolga mos kelsa, o'sha kartochkani ko'taradilar.

Misol uchun,

A) Muhammad Yusuf

B) Abdulla Avloniy

D) Abdulla Qodiriy

E) Zahiriddin Muhammad Bobur

Endi esa savolni o'qiyman: “1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida tugilgan shoir qaysi variantda keltirilgan. ”

(O'quvchilar oldilaridagi kartochkalardan A harfi yozilganini baland ko'taradilar)

Bundan ko'zlangan maqsad esa bir xillikdan qochish hamda ta'lim jarayonlariga har tomonlama yangicha yondashishdir.

Bu metoddan nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning boshqa bosqichlarida ham qo'llash mumkin.

Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi- talabalarning o'quv-biluv faoliyatini qo'yadi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishi, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, avvalo, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi usullarni tanlay bilishi, o'quv-tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi lozim. Innovatsion texnologiyalarni ta'limjarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish pedagoglar oldida turgan masalalardan biri hisoblanadi. O'qituvchi dars jarayonida boshqa ma'lumotni berish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil o'qishini talab darajasida shakllantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mavlonova Mohigul. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma. – Chirchiq-2018-y
2. G'ulomova M. X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamidata'lim samaradorligini oshirish usullari - T.: 2009-y
3. K.Usmonova. Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2015-y.
4. Movlonova, M. (2021). Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik uslublardan foydalanish (“Ufq” trilogiyasi misolida). Scientific progress, 2(5), 113-119.
5. N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish usullari. Buxoro. 2016-y